

MAKTAB ZO‘RAVONLIGINING JAMIYAT ONGIDAGI PSIXOLOGIK TRANSFORMATSIYASI (Janubiy koreya media mahsulotlari asosida)



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-674-679>

Akbarov Azamat Adxamjonovich

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Sharq filologiyasi fakulteti,
Koreys filologiyasi kafedrasi o‘qituvchisi,
Ommaviy kommunikatsiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
azamatdoc1984@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi Koreya Respublikasida so‘nggi yillar davomida dolzarb ijtimoiy muammo bo‘lib kelayotgan maktab zo‘ravonligi mavzusining mamlakatda suratga olinayotgan kino va teleseriallarda qanday yoritilishi tahlil qilinib, uning jamiyat ongidagi psixologik transformatsiyaga ta‘siri ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2000–2025 yillar oralig‘ida maktab zo‘ravonligi mavzusiga bag‘ishlangan jami 18 ta badiiy film va teleserial yaratilgan. Mazkur tadqiqot ushbu asarlarning tomoshabinlar ongida ijtimoiy mas‘uliyatni shakllantirish, zo‘ravonlikning salbiy oqibatlarini anglatish hamda mazkur muammo bo‘yicha jamoatchilik ongini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Koreya Respublikasi, maktabdagi zo‘ravonlik, psixologik o‘zgarish, film, teleserial.

Аннотация: В данной работе анализируется, как тема школьного насилия, являющаяся одной из актуальных социальных проблем в Республике Корея на протяжении последних лет, отражается в кинофильмах и телесериалах, а также рассматривается её влияние на психологическую трансформацию общественного сознания. По результатам исследования установлено, что в период с 2000 по 2025 годы было создано в общей сложности 18 художественных фильмов и телесериалов, посвящённых проблеме школьного насилия. Исследование показывает, что данные произведения играют важную роль в формировании социальной ответственности у зрителей, разъяснении негативных последствий насилия и повышении общественного сознания по данной проблеме.

Ключевые слова: Республика Корея, школьное насилие, психологическая трансформация, кино, телесериал.

Abstract: This paper analyzes how the issue of school violence, which has remained a major social problem in the Republic of Korea in recent years, is portrayed in films and television series, and examines its impact on the psychological transformation of public consciousness. The study reveals that a total of 18 feature films and TV series related to school violence were produced between 2000 and 2025. The research demonstrates that these works play an important role in fostering social responsibility among viewers, explaining the negative consequences of violence, and raising public awareness of this issue.

Keywords: Republic of Korea, school violence, psychological transformation, film, television series.

KIRISH

Ma‘lumki, maktab nafaqat umumta‘lim va majburiy ta‘limni ta‘minlovchi muassasa, balki tarbiya, odob-axloq va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi

muhim maskan hisoblanadi. O‘quvchilar kunning muayyan qismini maktabda o‘tkazganliklari sababli, ushbu muassasa ularning eng xavfsiz va ishonchli muhitlaridan biri, ya’ni “ikkinchi uyi” bo‘lishi lozim. Biroq amaliyotda ko‘plab o‘quvchilar aynan shu muhitda turli shakldagi zo‘ravonlik holatlariga duch kelmoqdalar. Xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida maktab o‘ravonligining asosiy sabablari sifatida ijtimoiy-iqtisodiy omillar, oilaviy muhit, maktab ichki muhiti hamda o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlanadi [7, 48].

Maktablardagi zo‘ravonlik (bulling) o‘quvchilarning ruhiy holati, shaxsiy rivojlanishi hamda kelajakdagi hayot faoliyatiga jiddiy va uzoq muddatli salbiy ta’sir ko‘rsatadi [3, 85]. Dunyo miqyosida mazkur muammoga qarshi turli profilaktik va institutsional choralar amalga oshirilayotganiga qaramay, maktab zo‘ravonligi jamiyatda hanuz dolzarb ijtimoiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda.

Shu kabi ijtimoiy muammolarni hal etishda san’atning, xususan, kino va teleseriallarning o‘rni beqiyosdir. Chunki kino va teleseriallar nafaqat bo‘sh vaqtni mazmunli o‘tkazish vositasi, balki inson va jamiyat ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, insoniyat doimo taraqqiyot va ezgulik sari intilib, kelajakka ishonch bilan yashab kelgan. Mazkur ishonchni shakllantirish va insonni hayotiy kurashga ruhlantirishda san’at muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan, kinematografiya yoshlar hayotida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki tarbiya, ta’lim, madaniy ongni rivojlantirish hamda shaxsiy kamolot uchun muhim rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi [2, 596].

Maktab zo‘ravonligi kabi ijtimoiy muammolarni bartaraf etish hamda uning salbiy oqibatlarini keng jamoatchilikka yetkazish jarayonida Koreya Respublikasida ishlab chiqarilayotgan kino va teleseriallarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishdagi asarlarning uzluksiz ravishda yaratilishining asosiy sabablari sifatida tomoshabinlarning yuqori qiziqishi hamda mazkur muammoning hanuz dolzarb bo‘lib qolayotganini ko‘rsatish mumkin [1, 1].

Mazkur tezisning asosiy maqsadi Janubiy Koreyada so‘nggi yillarda maktab zo‘ravonligi mavzusida suratga olingan kino va teleseriallarni xronologik tartibda tizimlashtirish, ularning soni hamda mavzu qamrovini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy asosi:

Maktab zo‘ravonligi. Maktab zo‘ravonligi — maktab hududida yoki undan tashqarida o‘quvchilarga yetkaziladigan jismoniy jarohatlar bilangina cheklanmay, balki tahdid qilish, kamsitish, haqoratlash, tovlamachilik, majburiy topshiriqlar yuklash kabi turli shakldagi zo‘ravonliklar natijasida jismoniy va ruhiy zarar yetkazishga olib keluvchi xatti-harakatlar majmuasini anglatadi [5, 58].

datda maktab muhitida zo‘ravonlikning quyidagi asosiy turlari uchraydi: jismoniy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, kiberzo‘ravonlik, ijtimoiy zo‘ravonlik hamda jinsiy zo‘ravonlik [6, 369].

Koreya Respublikasi Ta'lim vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda mamlakatda haqoratlash holatlari 33,5 foizdan 41,7 foizga, jismoniy zo'ravonlik esa 7,9 foizdan 12,4 foizga oshgan [4, 43]. Ushbu ko'rsatkichlar maktab zo'ravonligi holatlarining ortib borayotganini hamda mazkur muammoning dolzarbligi saqlanib qolayotganini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur yo'nalishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi (UNICEF) ham maktabdagi zo'ravonlik (bulling)ning oldini olish va unga qarshi kurashishda ota-onalarning muhim rolini alohida ta'kidlaydi. Shuningdek, zo'ravonlik holatlarining oldini olish maqsadida o'z dasturlari doirasida o'quvchilar hamda ota-onalarga muntazam ravishda tavsiyalar berib kelmoqda.

Ijtimoiy muammolarni yoritishda kino va teleseriallarning o'рни. Yuqorida ta'kidlanganidek, kino va teleseriallar inson hayotida muhim o'rin tutadi hamda uning shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularning inson hayotiga ta'siri shaxsiy rivojlanish va empatiya, madaniy ong va global dunyoqarashni kengaytirish, ta'lim beruvchi vosita sifatida xizmat qilish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy ongni rivojlantirish, ijodiy ifoda hamda o'zini anglash jarayonlarini qo'llab-quvvatlash kabi jihatlarida namoyon bo'ladi [2, 599].

Shu bois, kino va teleseriallarning yoshlar ongini rivojlantirish hamda atrof-muhitni anglash jarayonidagi roli beqiyosdir. Ayniqsa, zo'ravonlik singari ijtimoiy muammolarni yorituvchi asarlar mazkur masalalarning dolzarbligini keng jamoatchilikka yetkazishda hamda ularning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Janubiy Koreyada oila va jamiyatdagi ijtimoiy muammolar 1980-yillardan boshlab kino asarlari orqali yoritila boshlangan. 2000-yillardan so'ng esa mazkur mavzular koreys kinematografiyasining ajralmas yo'nalishiga aylangan. Jumladan, 2011-yilda suratga olingan “Qozon” (rejissyor Hwang Dong-hyuk), “Singan o'q” (rejissyor Jong Ji-young), 2014-yilda ishlangan “Veteran” (rejissyor Ryu Seung-van) hamda 2015-yilda namoyish etilgan “Pandora” (rejissyor Park Jong-woo) kabi filmlarni misol sifatida keltirish mumkin [1, 2].

Mazkur filmlar nafaqat Koreya jamiyatidagi dolzarb ijtimoiy muammolarni tomoshabinlarga yetkazib berish, balki ularni ushbu muammolar yuzasidan tanqidiy fikrlashga hamda muayyan darajada samarali yechimlar izlashga undash orqali muhim ijtimoiy vazifani bajaradi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. Tadqiqot jarayonida mazkur mavzu yuzasidan o'zbek tilida chop etilgan ilmiy maqola yoki tezislar aniqlanmadi. Biroq Koreya Respublikasi olimlari tomonidan maktab zo'ravonligi mavzusini kino va teleseriallar orqali yoritish hamda zo'ravonlikning oqibatlarini tomoshabinlarga yetkazishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Jumladan, Lee Sun-sub va Kang Hee-suk (2018) tomonidan o'rta maktab o'quvchilariga maktab zo'ravonligi mavzusidagi dramalarning ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, Kim Ha-young, Choi Seok-hwan va Shim Seung-bo (2022) muallifligidagi tadqiqotda maktab zo'ravonligi mavzusiga oid mutaxassislar fikrlari tahlil qilingan. Kang Seong-e (2022) esa “Hozir bizning maktabimiz” teleserialida

maktab zo‘ravonligi muammosining yoritilishini tadqiq etgan. Bundan tashqari, Song Se-yun va Kim Gol (2022), Han Jong-seok va Lee Bong-han (2023), Yang Byeong-ju (2023), Min Ji-hyeon va Park Yun-jeong (2025) kabi tadqiqotchilar ham kino va teleseriallarda maktab zo‘ravonligi mavzusining ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Mazkur tezisda Janubiy Koreyada maktab zo‘ravonligi muammosiga bag‘ishlangan 2000–2025 yillar oralig‘ida yaratilgan kino va teleseriallarning mazmuni kontent tahlili (content analysis) metodi asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida to‘plangan materiallar xronologik tartibda tizimlashtirilib, ularning umumiy soni aniqlangan.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur mavzu yuzasidan Janubiy Koreya kino ijodkorlari tomonidan jami 9 ta to‘liq metrajli badiiy film, 16 qismdan iborat 8 ta teleserial hamda 1 ta animatsion asar suratga olingan va tomoshabinlar e‘tiboriga havola etilgan.

Kino va teleseriallarning xronologik tahlili

№	Kinofilm nomi	Asar turi	Rejessyor	Mavzu	Yil
1	Malchuk ko‘chasidagi shafqatsizlik 말죽거리 잔혹사	Kino	Yu Ha	Yoshlar zo‘ravonligi va ijtimoiy bosim	2004
2	Cho‘chqalar qiroli 돼지의 왕	Animatsiya	Yeun Sang-ho	Kamsitilgan yoshlar hayoti	2011
3	Himoyachi 파수꾼	Kino	Yoon Sung-hyun	Do‘stlik va maktab zo‘ravonligi	2011
4	Qozon 도가니	Kino	Xvang Dong-hyuk	Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik	2011
5	Jazoga munosib shaxs 응징자	Kino	Shin Jae-ho	Maktab zo‘ravonligi va adolatsizlikka qarshi qasos	2013
6	Ajoyib yolg‘on 우아한 거짓말	Kino	Lee Han	Qizlar orasidagi zo‘ravonlik	2014
7	Malika Han 한공주	Kino	Lee Su-jin	Maktabdagi jinsiy zo‘ravonlik	2014
8	Zo‘ravonlik qonuni 폭력의 법칙	Kino	Kang Hyo-jin	O‘g‘il bolalar orasidagi zo‘ravonlik	2016
9	Yirtqichlar 괴물들	Kino	Kim Baek-jun	O‘g‘il bolalar orasidagi zo‘ravonlik	2017
10	Petnhaus 1 펜트하우스	Serial	Joo Dong-min	Maktab zo‘ravonligi va ota-ona munosabatlari	2020
11	Petnhaus 2 펜트하우스	Serial	Joo Dong-min	Maktab zo‘ravonligi va ota-ona	2021

				munosabatlari	
12	Petnhaus 3 펜트하우스	Serial	Joo Dong-min	Maktab zo‘ravonligi va ota-ona munosabatlari	2021
13	Ota-onang yuzini ko‘rishni istayman 니 부모님의 얼굴을 보고 싶다	Kino	Kim Ji-hun	Maktab zo‘ravonligi va ota-ona munosabatlari	2022
14	G‘alaba 더 글로리	Serial	Ahn Gil-ho	Maktab zo‘ravonligi va qasos	2022
15	Zaif qahramon 1 약한영웅 1	Serial	Yoo Soo-min	O‘g‘il bolalar orasidagi zo‘ravonlik	2022
16	Zaif qahramon 2 약한영웅 2	Serial	Yoo Soo-min	O‘g‘il bolalar orasidagi zo‘ravonlik	2022
17	Hozir bizning maktabimiz 1 지금 우리 학교는 1	Serial	Lee Jae-kyoo	Maktab zo‘ravonligi	2022
18	Hozir bizning maktabimiz 2 지금 우리 학교는 2	Serial	Lee Jae-kyoo	Maktab zo‘ravonligi	2025

Xulosalar. Maktab zo‘ravonligi nafaqat Koreya Respublikasida, balki butun dunyo miqyosida dolzarb bo‘lib qolayotgan ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning kelib chiqish sabablari va oqibatlariga bag‘ishlangan badiiy ekran asarlari — kino va teleseriallarning mazmuni hamda miqdorini aniqlashga qaratilgan mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi.

2000–2025 yillar oralig‘ida Janubiy Koreyada maktab zo‘ravonligi mavzusiga bag‘ishlangan jami 18 ta kino va teleserial suratga olingan. Yigirma besh yil davomida mazkur ijtimoiy mavzu doirasida shuncha ko‘plab asarlarning tomoshabinlarga taqdim etilishi maktab zo‘ravonligi muammosining jamiyatda hanuz dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Tomoshabinlarning yuqori qiziqishi hamda kino industriyasining iqtisodiy samaradorligi natijasida “Penthaus” (펜트하우스) teleserialining yana ikki mavsumi, “Zaif qahramon” (약한영웅) serialining ikkinchi mavsumi hamda “Hozir bizning maktabimiz” (지금 우리 학교는) teleserialining ikkinchi mavsumi suratga olinib, efirga uzatilgan.

Mazkur holat kino va teleseriallarning jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yoritishda hamda jamoatchilik e‘tiborini jalb etishda va psixologik transformatsiyada muhim rol o‘ynayotganini tasdiqlaydi. Tadqiqot doirasida tahlil

qilingan asarlarning mavzu yo‘nalishlari shuni ko‘rsatadiki, zo‘ravonlik holatlari asosan maktab muhitida sodir bo‘lib, ular nafaqat o‘g‘il bolalar, balki qizlar orasida ham keng tarqalgan. Shuningdek, oilaviy muhit va ota-onalarning munosabati ham mazkur muammoning yuzaga kelishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Eshimatova (2025) hamda Choi Ara (2017) kabi tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, kino asarlari jamiyatdagi muammolarni keng jamoatchilikka yetkazish hamda ularning salbiy oqibatlarini yoshlar ongiga singdirishda muhim rol o‘ynaydi. Janubiy Koreya kino va teleseriallarining soni hamda mavzu qamrovi mazkur muammo yuzasidan jamiyatning psixologik transformatsiyasiga ijobiy hissa qo‘shganini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Choi A. (2017). 이 영화들이 우리에게 이야기하는 것. *영화전국* 55. URL: <https://www.kmdb.or.kr/story/173/3614>.
2. Eshimuratova A.A. (2025). Yoshlar hayotida kino san’atining ta’siri va asosiy jihatlari. *Inter Education & global study*. №4, 595-600.
3. Isayeva N. A. (2025). Maktab o‘quvchilari orasida zo‘ravonlikni oldini olish. *Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiya*. 84-87.
4. Kim H. Y., Choi S. H., Sh S. B. (2022). 학교폭력 예방을 위한 태권도 전문가 의견 탐색. *Journal of Martial Arts*. 3(41), 42-60.
5. Lee S.S., Kang H. S. (2018). 학교폭력예방 소시오드라마가 중학생의 학교폭력 인식에 미치는 효과. *Korean Journal of Psychodrama*. 21(2), 57-72.
6. Ruzimova T. Y., Abdullayeva Sh. K., Yusupova I. T., Masharipova N. B., Djumaniyazova (2025). Zo‘ravonlikdan holi maktab. *Science and Education Scientific Journal*. 6(3), 367-372.
7. Smith, P. K., Sharp, S. (1994). *School bullying: Insights and perspectives*. London: Routledge.
8. UNICEF. Zo'ravonlik farzandingiz hayotida oddiy holga aylanishiga yo'l qo'ymang. URL: <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz>.